



TRAINING WORK IN THE FIELD OF CUSTOMS IN UZBEKISTAN

Gulida Olimjonova
Independent researcher
Karshi State University
Uzbekistan, Karshi

ABOUT ARTICLE

Key words: training of personnel in the field of Customs, Customs Service, Uzbekistan, qualified specialists, international experience.

Received: 16.11.24

Accepted: 18.11.24

Published: 20.11.24

Abstract: This article covers the importance of training personnel in the field of Customs in Uzbekistan and the process of growing qualified specialists who meet modern requirements. The importance of training personnel with high qualifications and professional skills in the Customs Service is growing. The article analyzes the system of training Customs personnel in the country, its content and modern methods, and also reflects on the need to use international experience and advanced practices.

O'ZBEKİSTONDA BOJXONA SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH ISHI

Gulida Olimjonova
mustaqil izlanuvchi
Qarshi davlat universiteti
O'zbekiston, Qarshi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Bojxona sohasida kadrlar tayyorlash, bojxona xizmati, O'zbekiston, malakali mutaxassislar, xalqaro tajriba.

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda bojxona sohasida kadrlar tayyorlashning ahamiyati va zamonaviy talablarga javob beradigan malakali mutaxassislarni yetishtirish jarayonini yoritadi. Bojxona xizmatida yuqori malaka va kasbiy ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada mamlakatdagi bojxona kadrlarini tayyorlash tizimi, uning mazmuni va zamonaviy usullari tahlil qilinadi, shuningdek, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlardan foydalanish zarurati haqida fikr yuritiladi.

ПОДГОТОВКА КАДРОВ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Гулида Олимжонова

Независимый исследователь

Каршинского государственного университета

Узбекистан, Карши

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: подготовка кадров в таможенной сфере, таможенная служба, Узбекистан, квалифицированные специалисты, международный опыт.

Аннотация: Данная статья освещает важность подготовки кадров в таможенной сфере в Узбекистане и процесс подготовки квалифицированных специалистов, отвечающих современным требованиям. Возрастает значение подготовки кадров с высокой квалификацией и профессиональными навыками в таможенной службе. В статье анализируется система подготовки таможенных кадров в стране, ее содержание и современные методы, а также дается представление о необходимости использования международного опыта и передовой практики.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida dunyoda iqtisodiyoti va bojxona tizimi rivojlangan barcha davlatlarda jamiyat rivojining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda xalqaro bojxona tizimi sohasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda qator xalqaro tashkilotlarning samarali faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Jahon savdo tashkiloti (WTO) va Jahon bojxona tashkiloti (WCO) bojxona sohasidagi tadbirilarini muvofiqlashtirib, tashkilotning tashabbusi bilan dunyoning turli mamlakatlarida iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga ko'maklashish, mazkur sohada tegishli zamonaviy standartlarni joriy etish, turli innovatsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tadbirlar olib borilmoqda. Binobarin, bojxona tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish butun dunyo miqyosida dolzarb hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Mustaqillikning ilk yillarda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi eng jiddiy muammo bu kadrlar masalasi bilan bog'liq bo'ldi. Mavjud tuzum inqirozi avvalo yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayonining izdan chiqishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, bojxona sohasida ham kadrlari va ularni tayyorlash jarayonida jiddiy muammolar mavjud edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 8 iyuldagи PF-1815 sonli Farmoniga muvofiq bojxona organlariga "Huquqni muhofaza qiluvchi organ" maqomi berilishi bilan DBQdagi shtatlar soni ham ko'paytirilib, 3277 taga yetkazildi. Farmon asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1997 yil 30 iyulda qabul qilingan 374-sonli qarorga muvofiq "Davlat

bojxona qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom” va bojxona xodimlarining maxsus xizmat formasi tasdiqlandi. Davlat bojxona qo‘mitasi qoshida «O‘quv markazi»ning tashkil etilishi esa bojxona ishi tarixida muhim voqeа bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 11 iyuldagи Farmoniga binoan, general-mayor O‘tkir Tolipovich Komilov DBQ raisi etib tayinlandi.

Davlat bojxona qo‘mitasi qoshida «O‘quv markazi» bojxona xizmatining shakllanish bosqichida uning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish masalalari kurslar, seminarlar, ma’ruzalar turkumlarini tashkil etish yo‘li bilan hal etildi. 1994 yili Toshkentda tashkil etilgan Davlat bojxona boshqarmasining dastlabki Toshkent o‘quv markazi yuqori ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashda olg‘a qarab qo‘yilgan katta qadam bo‘ldi. Mazkur markaz 1994 yilning 1 senyatbridan e’tiboran, bojxona organlariga qabul qilingan xodimlar uchun 1 oylik boshlang‘ich tayyorgarlik kurslarini yo‘lga qo‘ydi. O‘quv markazida 624 soat mobaynida tinglovchilar bojxona ishi nazariyasi, amaliyoti, jismoniy va jangovar tayyorgarlikni o‘rgandi. Nazariy kurs bojxona faoliyati, bojxona tarif va to‘lovlari, bojxonaning iqtisodiy muammolari, bojxona va xalqaro huquq, kontrabandaga qarshi kurash va tergov tadbirlari, bojxona statistikasi va texnika vositalari hamda ular yuzasidan konsultatsiyalarni o‘z ichiga oldi. Tinglovchilar 16-17 kishilik guruhlarga bo‘lingan. Har bir guruhda kurator bo‘lib, komandir va komandir o‘ribbosari tayinlangan[1].

Kasb mahoratiga yetarli darajada ega bo‘lgan xodimlar yetishmovchiligini ma’lum darajada bo‘lsa ham to‘ldirish va xodimlarni malakasini uzlusiz ravishda oshirib borish maqsadida Davlat bojxona qo‘mitasi tashabbusi bilan Oliy xo‘jalik oliygohi qoshida qo‘srimcha mutaxassislik bo‘yicha 2 yillik kurslar tashkil etildi. Bu kurslarda 2000 yilga qadar 150 nafar xodimlar bitirib chiqdi[2]. Bundan tashqari, 1994 yil noyabr oyidan boshlab, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida tashkil etilgan bir oylik kursda yuzdan ortiq bojxona ishi tergov oldi surishtiruv inspektorlari malaka oshirdi[3].

O‘zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, hamda bojxona organlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalash maqsadida 1998 yil 13 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Bojxona kolleji tashkil etildi[4]. Kollej bojxona kadrlarini tayyorlashga ixtisoslashgan, harbiylashtirilgan o‘quv yurti edi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tayyorlov yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichining Xalqaro va milliy standart talablariga moslashtirilgan hamda vazirliklar, qo‘mitalar, korporatsiyalar, kompaniyalar, palatalar, agentliklar, uyushmalar, markazlar, Fanlar akademiyasi va loyiha institutlaridan tushgan takliflar asosida yangi loyihasi ishlab chiqildi. Shuningdek, bojxona kollejida ham kursantlar umumta’lim, ijtimoiy-gumanitar fanlar, bojxona ishi, tezkor-qidiruv faoliyati, harbiy xizmat tayyorgarligi kabi kafedralarda tayyorlandi. Kollejni turli yillarda S.A.Alimbayev, H.Tadjiboyev, S.Minavarov, A.Qosimov, Sh. Mirkomilov kabi

tajribali rahbarlar boshqardi. Umuman, kollejda 1998 – 2001 yillar davomida 651 nafar o‘rta maxsus ma’lumotli bojaxona kadrlari tayyorlandi[5].

Bojaxona kollejida kursantlar to‘liq o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘ladi. 11 sinf ma’lumotiga ega bo‘lgan kursantlar esa ikki yillik nazariy ta’lim oladi hamda amaliyotda bir yil sinovdan o‘tishadi. 2000 yildan boshlab 9 sinf ma’lumotiga ega abiturentlar ham qabul qilina boshlandi.[6] Ular uchun o‘qish muddati turt yil: nazariyotni o‘rganish uchun 3 yil, amaliyot uchun bir yil belgilandi. Kollejni tugatganidan keyin bitiruvchilarga «bojaxona ishi huquqshunosi» ixtisosligi va bojaxona leytenantini unvoni beriladi. O‘qish muddati bojaxona organlaridagi ish stajiga, xarbiy xizmatda bo‘lmaganlar uchun amaldagi xarbiy xizmat o‘talgan hisoblanadi.

O‘quv rejalarini va dasturlariga muvofiq kursantlar uch yo‘nalish: ijtimoiy gumanitar, yuridik va maxsus fanlar bo‘yicha maxsus tayyorgarlikni o‘taydilar. Kollejda shuningdek, xarbiy-xizmat, jangovor va jismoniy tayyorgarlik, o‘zini himoya qilish, qo‘l jangining maxsus usullarini egallash ham ko‘zlangan[7].

Biroq, Bojaxona kolleji respublika bojaxona xizmatining mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondira olmas edi. Chunki, kollej o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim muassasasi bo‘lib, bojaxona xizmati uchun faqatgina o‘rta bo‘g‘in kadrlar yetkazib berishga mo‘ljallangan. Shularni hisobga olgan xolda, hamda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish, respublika bojaxona organlari uchun mutaxassislarini Maqsadli tayyorlashning uzlusiz tizimini barpo etish maqsadida 2001 yil 10 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi solik va bojaxona organlari Akademiyasi tashkil etildi[8]. Mazkur Akademiya tarkibida “Bojaxona ishi” fakulteti ham faoliyat ko‘rsatib, ushbu yo‘nalishda kadrlar tayyorlay boshladi. Akademiyada bojaxona sohasi kadrlari tayyorlanishi bilan birga amaliyotda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar malakasini oshirish tadbirlari ham olib borildi. Akademiya binosi Toshkent shahar, Sobir Yusupov ko‘chasi, 3-uy va Muqimiy ko‘chasi, 166-uydagisi Toshkent soliq kolleji va Davlat soliq ko‘mitasining o‘quv markazlari binolariga joylashtirildi.

Akademiyada tinglovchilarini o‘qitish kunduzgi va sirtqi shakllarda amalga oshirildi. Akademiyaga soliq va bojaxona kollejlarini tamomlaganlar 4 yil muddat bilan bakalavrilar tayyorlash dasturi bo‘yicha o‘qitish uchun, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarini tamomlaganlar qisqartirilgan bir yillik dastur bo‘yicha qayta tayyorlash uchun qabul qilindi. Akademiya bazasida soliq va bojaxona organlari xodimlari uchun o‘qitish muddati 3 oygacha bo‘lgan malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Akademiya tinglovchilarini uchun o‘qish davri soliq va bojaxona organlaridagi xizmat stajiga qo‘sildi.

Akademiyani tamomlaganlarga belgilangan namunadagi diplom va tegishli ravishda bojaxona xizmatining leytenantini yoki soliq xizmatining III darajali inspektori maxsus unvonlari berildi. Akademianing boshliqlar, professor-o‘qituvchilar tarkibiga va tinglovchilariga

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona ko‘mitasi xodimlarining tegishli toifalari uchun belgilangan me’natga haq to‘lash shartlari, imtiyozlar, buyumlar, oziq – ovqatlar bilan ta’minalash normalari va belgilangan boshqa normalar tafbiq etildi.

2001-2002 o‘quv yilida «Soliqlar va soliqqa tortish» hamda «Bojxona ishi» fakultetlariga belgilangan o‘quv dasturlar bo‘yicha tinglovchilar qabul qilindi. Bakalavrular tayyorlash to‘liq dasturi bo‘yicha – har bir 25 kishidan iborat ikkitadan guruh tashkil etildi.

Milliy bojxona tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni birinchi navbatda malakali kadrlar bilan jamlash masalasi bilan bevosita bog‘liq. Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 22 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish haqidagi” 229-sonli Qaroriga asosan Davlat bojxona qo‘mitasi qoshidagi “O‘quv markazi”, Soliq va bojxona organlari Akademiyasi "Bojxona ishi" fakulteti va Bojxona kolleji negizida Oliy harbiy bojxona instituti (OHBI) tashkil etildi[9]. Bu O‘zbekiston bojxona xizmatini oliy ma’lumotli kadrlar bilan ta’minalashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekistonda bunday o‘quv yurtining barpo etilishi mamlakatning yuqori malakali, ma’lumotli bojxona kadrlarini maqsadli bazaviy tayyorlash tizimida muhim rol o‘ynadi[10]. Bojxona instituti faoliyatini tashkil etishda Shoqosim Shoraxmedov, Sobit Alimboyev, Nuriddin Shukurov, Abdunor Suyunov, Sohibjon Abduhalilov kabi ustozlarning roli katta bo‘ldi. Ular turli yillarda mazkur o‘quv dargohini boshqardi.

Oliy harbiy bojxona instituti hamma jihatdan jahon standartlariga javob beradigan asbob uskunalar bilan jihozlash va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga kuchli e’tibor aratildi. Institutda 12 ta kafedra, bir nechta kompyuter sinfi, kriminalistik laboratoriya, o‘quv sinflari faoliyat yuritdi. Ushbu o‘quv xonalari zamon talablariga monand jihozlandi. Institutda “Texnik vositalarni qo‘llagan holda bojxona nazoratini tashkil etish”, “Kontrabandaga va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash”, “Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida tasniflash va sertifikatlashtirish” kabi ilmiy laboratoriyalar ham faoliyat ko‘rsatdi. O‘quv- moddiy va uslubiy bazani yaratishda, shuningdek, o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashda ko‘plab xalqaro tashkilotlar va boshqa xorijiy davlatlar O‘zbekistonga ko‘mak berdi.

2011 yilga kelib, Oliy xarbiy bojxona institutida 20 nafar xodim ilmiy darajalarga ega bo‘lib, ularning 14 nafari dotsent edi. Shuningdek, institutda 30 nafar pedagog ilm-fanning dolzarb mavzular bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. 2003 – 2011 yillard mobaynida OHBI da bojxona ishi va yurisprudensiya bo‘yicha 600 dan ortiq mutaxassis tayyorlandi[11].

2018 yil 2 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3995-sonli Qaroriga asosan Oliy harbiy bojxona instituti Bojxona instituti etib qayta tashkil etildi va bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini

oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim hamda ilmiy-metodik muassasa sifatida belgilandi[12].

Shu bilan bir katorda, Bojxona instituti tuzilmasi takomillashtirildi, jumladan, «Axborot texnologiyalari va modellashtirish markazi», «Til va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish markazi», «Bojxona nazorati texnik vositalari o'quv laboratoriyasi» kabi yangi tarkibiy tuzilmalar tashkil etildi[13].

Bojxona organlari uchun malakali milliy kadrlarni tayyorlash, bojxona xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda bojxona ishini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish Bojxona institutining asosiy vazifalari etib belgilangan. Institutda ushbu vazifalarni ta'minlash maqsadida "Bojxona ishi" va "Qayta tayyorlash va malaka oshirish" fakultetlari tashkil etilgan[14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va Davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2021 yil 10 sentyabrdagi PF-6310–son Farmoni bilan Bojxona institutida oliy ta'limdan keyingi ta'lim – doktorantura tashkil etildi. Institutda R.Turapov, Q.Karimqulov, A.Saidov, L.Pulatova, G.Asilova, Sh.Akramova, Sh.Muratova, O.Utegenov kabi o'nlab fan doktorlari kursantlarga saboq berdi[15].

XULOSA

Xullas, bojxona organlari faoliyatining tashkil etish va uni zamon talablariga moslashtirish bo'yicha mustaqillik yillarda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirildi. Muhim masalalardan biri bojxona organlarini kadrlar bilan ta'minlash masalasi dolzaob ahamiyatga ega bo'ldi. Dastlabki yillarda Davlat bojxona qo'mitasi huzurida O'quv markaz faoliyati yo'lga qo'yildi. 1998 yilda Bojxona kolleji tashkil etilgan bo'lsa, 2003 yilda Oliy harbiy bojxona instituti, uning negizida 2018 yilda Bojxona instituti tashkil etildi. Ushbu muassasalarda o'rta va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, bojxona organlari xodimlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-qo'vvatlash bo'yicha ham amaliy ishlar amalga oshirildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирсовуров М, Божхоначилар ўқуви // Солиқлар ва божхона хабарлари, 1998 йил 21 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитасининг 1998 йил 16 ноябрьдаги 379 сонли бўйруғи.
3. Алимбоев С.А. Ўзбекистонда божхона ишини ташкил этиш ва такомиллаштириш гоялари.- Т., Ўзбекистон, 1996. 139 бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Божхона коллежини ташкил этиш тўгрисидаги қарори. №297. 13 кюл 1998.

5. Давлат божхона қўмитаси жорий архиви.
6. Солиқ на божхона хабардари. №№ 49/1998 йил 26.11.-3.12
7. Солиқ ва божхона хабарлари №49/ 1998 йил 26.11- 3.12.
8. Узбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг «Солиқ ва божхона органлари академиясини ташкил этиш тўғрисида» ги қарори. 10 январь 2001 №16
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2003 йил 22 майдаги 229-сон “Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси органлари учун кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш хақида”ги қарори // <https://lex.uz/docs/244761>
10. Ўзбекистон божхона хизмати. – Тошкент, 2005. 112-бет.
11. Солиқ ва божхона хабарлари, 2011 йил 5 сентябрь.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 ноябрьдаги “Ўзбекистон Республикаси божхона органлари кадрларини тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3995-сонли Қарори // <https://lex.uz/ru/docs/4037440>
13. Ганпназаров Р, Энг улуғ, энг азиз неъмат // Солиқ ва божхона хабарлари, 2019 йил 6 август.
14. Олий ҳарбий божхона институти жорий архиви маълумоти.
15. Давлат божхона қўмитаси жорий архиви.